

MILLIY MADANIYAT VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING YURTIMIZ TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Xafiza Abdullayeva

O‘zDSMI “Madaniyat va san’at menejmenti”
kafedrası o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Bugungi kunga kelib jahon taraqqiyotida milliy madaniyat juda katta ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy kuch sifatida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida milliy madaniyat va unga yangicha munosabatni rivojlantirish yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlar hamda milliy madaniyatning millatlararo munosabatlarni mustahkamlash va yanada takomillashtirish borasida davlatimiz tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosat, tarixiy tajriba va ijobiy natijalar o‘rganilib, xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Konsepsiya, milliy ong, milliy madaniyat, integratsiya, madaniyatlararo hamkorlik, jahon hamjamiyati, madaniyatlararo kommunikatsiya, qadriyat.

АННОТАЦИЯ

На сегодняшний день в мировом развитии национальная культура приобретает значение как огромная социально-политическая, экономическая и духовно-просветительская сила. В данной статье даны выводы о проводимой в условиях обновляющегося Узбекистана работе по развитию национальной культуры и нового отношения к ней, а также о проводимой нашим государством рациональной политике, историческом опыте и положительных результатах по укреплению и дальнейшему совершенствованию межнациональных отношений национальной культуры.

Ключевые слова: Понятие, национальное сознание, национальная культура, интеграция, межкультурное сотрудничество, мировое сообщество, межкультурная коммуникация, ценность.

Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

Mamlakatimizda xalqimizning hayot darajasi va turmush sifatini har tomonlama yuqori bosqichga ko'tarish bo'yicha keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, barcha sohalarnı modernizatsiyalash, qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash asosida O'zbekistonning yangi qiyofasi yaratilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ilm-fan, madaniyat va san'at, ma'naviyat va ma'rifat haqida gap ketganda shuni alohida ta'kidlash lozimki, dunyo ma'rifatparvarlik maktabining taraqqiyotida o'zbek milliy madaniyati va san'ati darg'alarining, xususan, xalq milliy madaniyat o'chog'larining o'rni alohida nurli sahifalarnı tashkil etadi.

Darhaqiqat, dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda yurtimizda ilm-fan va madaniyatga, ma'naviyat hamda ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olishi, intellektual salohiyatini oshirish kabi masalalar har qachongidan ham muhimdir. Buyuk tarixda hech narsa ızsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ko'pgina millatlarning o'z davlatini mustahkamlash va milliy madaniyatini rivojlantirish bilan bog'liq turli harakatlar hamda har-xil tadbirlar qilayotgani kuzatilyapti. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ham qator ishlar amalga oshirilib, jahon ahamiyatiga molik qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilinmoqda.

Jumladan, 2018-yilning 28-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PQ-4038-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab-avaylash hamda jahon madaniyati bilan uyg'un holda rivojlantirish, milliy madaniyatni keng targ'ib etish, uning xalqaro madaniy makonda tutgan o'rni va mavqeini yanada mustahkamlash maqsadida qator chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Mazkur Konsepsiyada milliy madaniyatni yanada rivojlantirish mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uzviy va ajralmas qismi bo'lishi bilan bir qatorda tizimdagi ma'lum bir kamchiliklarga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlab o'tdilar. Bunga misol tariqasida, Qarorda, - "Zamonaviy media makonda milliy madaniyatimiz munosib

o‘rin egallamagani, sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari to‘liq joriy etilmagani sohani keng tadqiq va targ‘ib etish, xalqaro madaniy jarayonlarga talab darajasida integratsiya qilishga yo‘l bermayapti”.⁶⁴ Bundan shuni anglashimiz lozimki, milliy madaniyatimizni xalqimiz orasida yanada kengroq targ‘ib qilish, uning tub mohiyatini tushuntirish va yanada rivojlantirish borasidagi ishlar sonini jadal oshirmoq kerak.

Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan buyuk mutafakkirlarimiz ijodiga nazar solsak, ularning ilmiy merosida ham milliy madaniyat tushunchasi, uning mohiyatini ochishga intilish, ilmiy mulohazalar berishga qiziqish katta bo‘lgan. Shuningdek, insonlarning madaniylik darajasini belgilashda bevosita va bilvosita ijtimoiy hayot, ular yashayotgan jamiyatning ichki va tashqi holati, siyosiy jarayonlar bilan bog‘liqlikda talqin etishda ham milliy madaniyatga e‘tibor qaratilgan.

Masalan, O‘rta asr Sharq madaniyatining buyuk namoyondasi Abu Nasr Forobiyning fikricha, har bir inson o‘z tabiatiga ko‘ra, “oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun intiladi”, bunday yetuklikka faqat shahar jamoasi orqaligina erishiladi. Ma‘lumki, Forobiy qarashlari Aflotun, Arastu nazariyalari ostida shakllangan bo‘lib⁶⁵, u allomaning ezgulik va yaxshilik kategoriyalari xususidagi falsafiy qarashlarida yaqqol namoyon bo‘ladi va bu tasavvurlarni umumiy holda “fozillik” iborasida qo‘llaydi. Forobiy jamiyatning yetuklikka tomon intilishi, shuning uchun kurash olib borishi va nihoyat fozillik darajasiga ko‘tarilishi haqida fikr yuritar ekan, “fozil jamiyat va fozil shahar (yoki mamlakat) shunday bo‘ladiki, bunday mamlakatda har bir odam kasb hunarda ozod, hamma bab baravardir, kishilar o‘rtasida farq bo‘lmaydi, har kim o‘zi istagan yoki tanlagan kasb hunari bilan shug‘ullanadi. Odamlar chin ma‘nosi bilan ozod yashaydilar”, deb yozadi.

O‘zbekistonda mustaqillik tantanasi tufayli ta‘lim-tarbiya tizimida tub o‘zgarishlar vujudga keldi. Milliy qadryatlarni tiklash, milliy ma‘naviyatni yuksaltirish, ayniqsa sharqona odob-axloq an‘analariga e‘tiborni kuchaytirish shular jumlasidandir. Insonparvarlik – o‘zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Shavqatsizlik va zo‘ravonlik, uning tabiatiga yotdir. Bizning xalqimiz o‘zining ko‘p ming yillik tarixi davomida ko‘p narsalarni boshidan kechirdi. Omonsiz jangu-jadallar xalqimizning insoniylik tabiatiga dog‘ tushura olmadi. O‘zbek oilasida bugungi kunda yaxshilik va yorug‘lik, kelajakka intilish mujassamlashgandir. Uchinchi renessansning amalga oshishiga kirishgan ekanmiz bunda, milliy ma‘naviyatning o‘ziga xosligini tiklashga alohida e‘tibor berilishi lozim.

⁶⁴ O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son qarori.

⁶⁵ Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri”, T.: 2004. 58-bet.

Asrlar mobaynida shakllangan, avlodan-avlodga bebaho meros sifatida o'itb kelayotgan urf-odatlar, marosimlar, bayramlar zamirida demokratiyaning asosiy g'oyalarini singdirish muhim omildir. Bular halollik, poklik, o'zaro yordam, adolat, haqiqatgo'ylik, ezgulik, tinchlik, shaxs erkinligi, mehr-muhabbat kabi fazilatlardan burch, vijdon, or-nomus, mas'uliyat kabi axloqiy tushunchalar shaklida namoyon bo'ladi. Qadriyat o'z tabiatiga ko'ra, ijtimoiy-tarixiy xususiyatga ega bo'lib, ijtimoiy taraqqiyot jarayonida o'zgaradi va takomillashadi. Hozirgi ilg'or davlatlar hayotining demokratik tamoyillari ham qadrini nechog'li yuksaklikka ko'tarishi bilan baholanadi. Mamlakatimizdagi tub o'zgarishlar, islohatlarning mohiyati ana shu tamoyildan kelib chiqadi. Uni amalga oshirishda milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligiga asoslangan yangicha dunyoqarash, sog'lom tafakkurni shakllanishi katta ahamiyat kasb etadi. Xususan, demokratiya mohiyatan insonning har tomonlama kamol topishi uchun berilgan imkoniyat, shaxs bilan jamiyat manfaatlaridagi uyg'unlikni ta'minlovchi omildir.

Inson erkinligi haq-huquqlarini ta'minlash, qonun ustuvorligi, demokratiya, fikrlar xilma-xilligi va ijtimoiy plyuralizmga erishishi umumbashariy qadriyatlar birlamchiligiga amal qilish sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda jahonda davlatlarning ichki va tashqi ana shu tamoyillarga amal qilinishi – umumbashariylikning ustuvorligi g'oyasiga tayanish, bu g'oyani amalga oshirish sifatida baholanmoqda. Har bir mamlakatning mavqeyi, uning bashariyat taraqqiyotiga qo'shilayotgan hissasi bilan o'lchanadi. Milliy va umumbashariy qadriyatlarning qarama-qarshi qo'yish milliy hudbinlikka, millatlararo nizolarga olib kelishi natijasida butun bashariyat rivojiga to'siq bo'lishi muqarrar. Mustaqil respublikamizda milliy va umumbashariy qadriyatlar mushtarakligiga, xalqimizning jahon hamjamiyati bilan birga rivojlanish yo'lidan borayotganligiga alohida e'tibor berilayotganligi sababi ham shundan deb hisoblayman.

Jamiyat tobora rivojlanib borgan sari, milliy o'zlikni anglash, milliy madaniyatga o'z ta'sirini o'tkazib boradi. Dunyoda nechta millat yoki elat bo'lsa, hammasining o'ziga xos, takrorlanmas madaniyati bo'lib, har birining madaniyati shaklan va mazmunan bir-biridan farq qiladi. Madaniyatdagi turli-tumanlik ma'lum millat yoki elatning soni oz-ko'pligida emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, xo'jalik yuritish tarmoqlarining xilma-xilligi, tabiiy va iqlim sharoiti, geografik joylashuvi, ma'naviy turmush tarzi va boshqa qator omillar bilan belgilanadi. Milliy va tarixiy an'analar o'z yo'li bo'yicha, sun'iy ta'sirlarsiz va tazyiqlarsiz kechgandagina, o'z qiyofasini saqlaydi. Sun'iy g'oyalar, qarashlar, tushunchalarni olib kirish, milliy va tarixiy an'analarni o'zgartirishga urunishlar yoki taqiqlar ijobiy natija bermaydi. Bunday holatga xalq emas, balki ma'lum shaxs yoki shaxslar ta'sir ko'rsatishga urinadi, ammo xalqning udumlari sifatida u saqlanadimi yoki yo'qmi – bu boshqa

masala. Sobiq Sho‘ro davrida bir necha ming yillar davomida an‘ana bo‘lib nishonlanib kelingan Navro‘z bayramining nomini, mazmunini va mohiyatini o‘zgartirishga bo‘lgan xatti-harakatlarning ijobiy natija bermagani ma‘lum. Milliylikni, milliy an‘analarni “yagona sovet madaniyatiga aylantirish” g‘oyasi hukmron bo‘lgan o‘sha sharoitda madaniy jarayonga noxolis munosabatning shunday bo‘lishi tabiiy edi. Chunki Navro‘z singari azaliy bayramlar milliy madaniyatning asl qiyofasini belgilaydi.⁶⁶

Bugungi kunda yangi O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish yo‘lida izchil islohotlar olib borilmoqda. Bu o‘zgarishlar ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni davlatimiz siyosatida yanada yuksak o‘ringa ko‘targani ayni haqiqat. Mamlakatimizda madaniyat va san‘at sohasi rivoji uchun katta ishlar amalga oshirilmoqda. 2021-yilning 20-yanvar kuni “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonunning maqsadi madaniy faoliyat, shuningdek madaniyat tashkilotlari faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Mazkur qarorning qabul qilinishi sohada katta islohotlar amalga oshishida poydevor bo‘lib xizmat qiladi desak adashmagan bo‘lamiz. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida madaniyatning o‘rni va ahamiyati kattadir. Qabul qilingan qarorning aynan 7-bobi madaniy faoliyat sohasidagi madaniy xalqaro hamkorlik ham bu borada qator vazifalar belgilab berilgan. Jumladan:

- xalqaro madaniy almashinuv;
- xalqaro madaniyat tashkilotlari bilan hamkorlik;
- madaniyat obyektlarini va san‘at asarlarini ommalashtirish;
- milliy madaniy markazlarni tashkil etish va rivojlantirish;
- madaniyat xodimlarini o‘qish (tajriba orttirish) uchun yuborish;
- madaniyat sohasida zamonaviy innovatsion texnologiyalarni, texnik vositalarni yaratish va amalda joriy etish;
- milliy urf-odatlar va an‘analarni namoyish qilish;
- milliy madaniyat kunlari, ko‘rik-tanlovlar, festivallar, ko‘rgazmalar, konferensiyalar, adabiy seminarlar, gastrollar hamda boshqa madaniy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish;
- madaniyat xodimlari o‘rtasida o‘zaro tajriba almashishni va hamkorlikning boshqa turlarini yo‘lga qo‘yish.

Xalqaro madaniy almashinuvni amalga oshirish tartibi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va qonunchiligi bilan belgilanadi.⁶⁷ [4]

⁶⁶ Q.Nishonboyeva. “Madaniyatning millatlararo va umumbashariy muammolari”./O‘quv qo‘llanma./Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”. 2020, 192 b.

⁶⁷ “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2021-yil 20-yanvar. Lex.uz.

Buyuk tariximizdan bizga ma'lumki, har bir davrda yurtimiz qo'shni mamlakatlar va davlatlar bilan faol hamkorlik aloqalarini o'rnatib kelishgan. Bu orqali ko'plab sohalar rivojlangan, do'stlik munosabatlari o'rnatilib tinchlik-totuvlikka erishilgan. Milliy davlatchiligimiz asoslari haqidagi mulohazalarni siz buyuk yozuvchi Abduqahhor Ibrohimovning "Bizkim, o'zbeklar" asaridan o'qib bilishingiz mumkin. Bu asarda vatanparvarlik, madaniyatimizning mustahkam, baquvvat ildizlari haqidagi o'y-mulohazalar keltirilgan. Jumladan, Markaziy Osiyo hududida joylashgan O'zbekiston Respublikasidagi tinchlik va barqarorlik butun mintaqada mo'tadil siyosiy iqlim, tinchlik va barqarorlik bardavom bo'lishiga sabab bo'luvchi omillardan biri bo'lib kelgan va ayni kunlarda ham shunday. Bu mulohazani shuning uchun ham aytmoqdamizki, milliy davlatchiligimiz tarixini shunday chuqur, keng ko'lamda va har tomonlama o'rganaylikki va targ'ib qilaylikki, do'stu nodo'stlarimiz bizkim, o'zbeklar haqiqatan ham qadim xalqlardan biri ekanimizni, davlatchiligimiz ham boy tarix, tajriba va an'analarga ega ekanini, bu davlatchilik nafaqat o'zbek xalqimizning taqdirida, balki bir qator Sharq xalqlari qismatida ham ijobiy o'rin tutganini rad etib bo'lmaydigan dalillar qarshisida lol qolib, e'tirof etsinlar, noilmiy qarashlaridan, yuqoridan boqishlaridan voz kechsinar. Lekin ularning tan olishlari birinchi masala emas, uzluksiz ravnaq eta borishlik millatni o'z-o'zidan e'tirof ettirib qo'yajak. Asosiysi shuki, unitalayotgan tariximizni o'zimiz chuqur bilib olaylik. Ana shunda bugunimizning qadriga ko'proq yetamiz, kelajakka ishonchimiz yanada oshadi, qaddimiz yanada tik bo'ladi.⁶⁸ [5, 267 b.]

Ko'plab olim va mutafakkirlarning fikrlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, inson madaniyatni his qilishi va tushunishi bevosita uning hayot tarzi, o'zaro muloqotga kirishuvi, ijtimoiy munosabatlarning harakteri va boshqa omillar bilan chambarchas bog'liq. Aynan milliy madaniyat tushunchasi muayyan tarixiy davr, konkret jamiyat, elat va millat, shuningdek inson faoliyati va turmushining o'ziga xos sohalarini izohlash uchun qo'llaniladi.

⁶⁸ Ibrohimov A. Bizkim, o'zbeklar: Milliy davlatchiligimiz asoslari haqida mulohazalar. -Toshkent: Sharq, 2001.-400.b

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son qarori.
2. Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri” ,T.: 2004. 58-bet
3. Q.Nishonboyeva. “Madaniyatning millatlararo va umumbashariy muammolari”./O‘quv qo‘llanma./Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”. 2020,192 b.
4. “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2021-yil 20-yanvar. Lex.uz.
5. Ibrohimov A. Bizkim,o‘zbeklar: Milliy davlatchiligimiz asoslari haqida mulohazalar. -Toshkent: Sharq, 2001. -400 b.